

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


14 iyul, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-30 iyun, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda



— UzSQB



— NBU



— Ipoteka bank



➤ 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

➤ Iyul oyida SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'sishni boshladi. O'tgan hafta boshida daromadlilik 7,268% ga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 7,251% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 7,251% – 9,126% gacha o'zgarib turdi. Ushbu tendensiyalarga asoslangan holda, yil oxiriga kelib SQB evrobondlarining daromadliligi 7,8% – 9,5% atrofida bo'lishi mumkin.


➤ O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,964%–6,977% gacha o'zgarib turdi. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,977% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,938–8,878% gacha o'zgarib turdi. Ayni vaqtdagi tendensiyalar asosida, bizning prognozimizga ko'ra, yil oxiriga kelib daromadlilik 7,3% – 8,9% gacha yetishi mumkin.

➤ O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi 6,716% darajasida bo'ldi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik pasaydi va 6,662% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,962% – 8,533% gacha o'zgarib turdi. Bizning prognozlarimizga ko'ra, yil oxiriga kelib daromadlilik 6,6% – 7,7% oralig'ida bo'lishi kutilmoqda.

SOFR va Euribor

AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi


SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,26-4,49% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,33% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 4,31% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Hozirgi vaqtda tahlilchilar yil oxiriga borib, SOFR stavkasi 3-3,5% gacha pasayishini prognoz qilmoqda, bu esa iqtisodiy faollikning sekinlashishi mumkinligi bilan bog'liq ravishda pul-kredit siyosati yumshatilishi bo'yicha kutilmalar bilan izohlanadi.

Euribor dinamikasi




Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) joriy haftaning boshiga kelib 2,026% (3 oylik) va 2,072% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.

Ko'pchilik ekspertlar bank sektorida ushbu stavkaning yanada pasayishini, xususan 2025-yil oxiriga kelib 2% ga tushishi mumkinligini prognoz qilmoqdalar.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo hajmi **1 081,6** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **254,4** million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 676** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib, **12 615,1** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **2,09%** ni tashkil etdi. Yuqorida aytib o'tilgan omillarni inobatga olgan holda, yil oxiriga kelib kurs **13 420-13 550** so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.


Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi



11.07.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Ipoteka bank**da qayd etilgan – **12 590** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 705 – 12 970** so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **BRB bank**da qayd etilgan – **12 900** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 610-12 900** so'm atrofida bo'lgan.



- Rubl mustahkamlanmoqda: dollar 79 rubl darajasidan pastga tushdi

AQSh dollari kursi rublga nisbatan asta-sekin mustahkamlanishni ko'rsatmoqda, chunki kurs 79,10 dan 78 ga tushmoqda. Bu neft narxlarining barqarorlashuvi hamda Rossiya Markaziy bankining asosiy stavkani o'zgartirmaslik qarori natijasidir.


Mutaxassislar ta'kidlashicha, rublning mustahkamlanishi eksport ko'rsatkichlarining yaxshilanishi va geosiyosiy taranglikning kamayishi bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. Yaqin kunlarda kursning tor diapazonda o'zgarib turishi bilan hozirgi tendensiyaning saqlanib qolishi kutilmoqda.



- Rubl yuanga nisbatan mustahkamlandi

2025 yil 23 iyundan 27 iyungacha bo'lgan davrda Rossiya rubli Xitoy yuani bilan nisbatan mustahkamlanish tendensiyasini namoyish etdi. Ushbu vaqt oralig'ida kurs 10,5 yuandan 11,0 yuanga ko'tarildi, bu milliy valyutaning xarid qobiliyatining oshishini va ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlarning barqarorlashuvini ko'rsatadi.

Rossiya va Xitoy o'rtasidagi savdo aylanmasining o'sishi, eksport yetkazib berishlarining va investitsiyalarning oshishi fonida rublga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda.




- Yevro dollarga nisbatan o'sishda davom etmoqda

2025 yil 7 iyuldan 10 iyulgacha bo'lgan davrda yevroning AQSh dollariga nisbatan kursi o'rtacha o'zgaruvchanlik ko'rsatib, 1,1713 dan 1,1790 gacha o'zgarib turdi. Joriy EUR/USD dinamikasi AQShning qat'iy pul siyosati fonida dollarning mustahkamlanishi bilan yevrozonadagi iqtisodiy qiyinchiliklar sabab yevroga bo'lgan ehtiyotkor talab o'rtasidagi muvozanatni aks ettiradi. Bozor uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va markaziy banklarning bayonotlarini diqqat bilan kuzatib borish, valyuta trendidagi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga o'z vaqtida javob berish muhimdir.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



➤ Oltinning narxi pasayishda davom etmoqda

Oltin narxlar yana oshdi, chunki investorlarning xavotiri kamaydi. Buning sababi AQSh prezidenti Donald Tramp ko'plab mamlakatlarga bojlar joriy etilishi haqida xatlar yuborganligi va joriy etish muddatini 1 avgustga qoldirganligi bo'lib, bu muzokaralar uchun ko'proq vaqt berdi. Bundan tashqari, oltin bozori o'z pozitsiyalarini 1 untsiya uchun 3300 dollar darajasidan yuqorida barqarorlashtirmoqda, bu esa AQSh Federal xazina tizimining ehtiyotkorlik bilan olib borilayotgan pul-kredit siyosati tufaylidir. Shunga qaramay, mutaxassislar fikricha, qisqa muddatda oltin narxlar o'zgarishi yoki pasayishi mumkin, ammo uzoq muddatda bu qimmatbaho metall narxining o'sish salohiyatiga ishonish davom etmoqda.


Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



➤ Neft narxlar tushishda davom etmoqda, Brent nefti barrel uchun 67 dollardan past narxda savdolanmoqda.

Brent neftining joriy haftadagi narxi barrelli \$69–\$70 oraliq'ida o'zgarib turmoqda. Qisqa muddatda narxlar ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi va jahon iqtisodiyotidagi noaniqlik sabab bosim ostida qolmoqda. Shunga qaramay, Yaqin Sharqdagi mojarolar va ta'minotdagi uzilishlar kabi geosiyosiy xavflar narxlarning vaqtinchalik oshishiga turtki bo'lishi mumkin. Investorlar asosiy mintaqalardagi voqealarni va OPEK+ mamlakatlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarni diqqat bilan kuzatib borishlari lozim. Shunday qilib, qisqa muddatli o'zgarishlarga qaramay, uzoq muddatda taklifning ortiqchaligi va global talabning sekinlashuvi kabi fundamental omillar narxlarga bosimni saqlab qolishini ko'rsatmoqda.

TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ Yevropada gaz narxlar Eron va Isroil o'rtasida sulh haqidagi xabarlar tufayli tushdi.

Yevropada tabiiy gaz bozoridagi qisqa muddatli o'zgaruvchanlik deyarli to'rt yil ichidagi eng past darajaga tushdi. Bu ortiqcha taklif bilan bog'liq bo'lib, global talabning ehtimoliy o'sishiga oid xavotirlarni soya ostida qoldirmoqda. Yevropa davlatlari hozircha barqaror gaz ta'minotini ta'minlashga va keyingi isitish mavsumi uchun zahiralarni shakllantirishga muvaffaq bo'lmoqda. Biroq, xavflar saqlanib qolmoqda. Bashoratlarga ko'ra, iyul oyining ko'p qismi Yevropada odatdagidan issiqroq bo'ladi, bu esa sovutish uchun elektr energiyasiga bo'lgan talab oshishi bilan tabiiy gaz iste'molining o'sishiga olib kelishi mumkin.

Yangiliklar

KBC Group kreditlash jarayonini «aqlli» shartnomalar yordamida avtomatlashtirmoqda.

KBC hujjatlarni tekshirish va kredit berish jarayonini avtomatlashtirish uchun «aqlli» shartnoma texnologiyasini faol joriy qilmoqda, bu jarayonni tezlashtiradi va ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi.

Revolut Yevropada Wero raqamli to'lov hamyonini ishga tushirmoqda.

Revolut Yevropa To'lov Tashabbusi (EPI)ga qo'shilib, tanlangan Yevropa mamlakatlaridagi mijozlariga Wero raqamli to'lov hamyonidan foydalanish imkoniyatini taqdim etdi. Ushbu yechim Yevropada to'lov operatsiyalarini soddalashtirish va tezlashtirishga qaratilgan.

Revolut Buyuk Britaniyada bank litsenziyasini olishni kutmoqda.

Britaniyalik fintech kompaniyasi Revolut Angliya Markaziy Banki va Moliyaviy nazorat va tartibga solish boshqarmasidan (FCA) bank litsenziyasini olishni kutmoqda. Bu kompaniyaga kreditlash va ipoteka mahsulotlarini o'z ichiga olgan bank xizmatlarini kengaytirishga imkon beradi va raqamli moliyaviy xizmatlar bozoridagi mavqegini mustahkamlaydi.

Temenos bank mahsulotlarini ishlab chiqishni tezlashtirish uchun sun'iy intellekt yordamchisini joriy qilmoqda.

Shveysariyalik fintech kompaniyasi Temenos chakana bank xizmatlari platformasiga integratsiyalangan sun'iy intellekt yordamchisini taqdim etdi. Microsoft Azure OpenAI imkoniyatlaridan foydalangan holda, ushbu yordamchi bank xodimlariga platforma bilan tabiiy til orqali muloqot qilib, yangi mahsulotlarni tezroq ishlab chiqish va joriy etishga imkon beradi.